

---

Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbarining 2019-yil 04-oktyabr kuni "Istiqbol" mahalla fuqarolar yig'inida navbatdagi sayyor qabuli bo'lib o'tdi. Qabulda tuman Xalq qabulxonasi mudiri R.Abdullayev, tuman hokimining o'rinbosarlari hamda tashkilot rahbarlari qatnashdi.

Qabulda jami 12 nafar fuqarolar qatnashib, ular tomonidan turli sohadagi muammolar yuzasidan 13 ta og'zaki murojaatlar kelib tushdi.

Qabuldagi murojaatlar yuzasidan tuman hokimi tomonidan tuman hokimining o'rinbosarlari hamda tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlariga ushbu murojaatlarda ko'tarilgan muammo va kamchiliklarni qonunda belgilangan tartibda bartaraf etish yuzasidan tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Shuningdek, ushbu murojaatlarni ijrosini nazorat qilish yuzasidan choratadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.











2019-10-04 16:13:25